

SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI ORQALI BOLALARDA IJODKORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi,

Abdisalomova Nasiba Nabijon qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta'lim
fakulteti 305-guruh talabasi

Annotatsiya

Pedagogika ensiklopediyasida ijodkorlikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Ijodkorlik – yangilik uchun kurashish, fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlarini tahlil qila bilish va undan o'zining faoliyatida o'ziga foydalanishga erishish, doimo o'z ustida ishlash. Ijodkorlik – insonning ongli, ma'lum maqsadga yo'nalgan, harakatchan faoliyatidir".

Bizning fikrimizcha, ijod – natijasi ob'ektiv yoki sub'ektiv ahamiyatga ega bo'lgan, yangi, original va yanada takomillashgan moddiy va ma'naviy qadriyatlarning yaratilishi, mavjudlarining esa takomillashtirilishiga oid faoliyatdir. Ijodning bir qator turlari mavjud. Masalan, ilmiy ijod, badiiy ijod, pedagogik ijod, texnik ijod va h.k. Mazkur maqolada sahnalashtirish faoliyati orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish borasida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, sahnalashtirish, qobiliyat, ifodali nutq, teatr madaniyati, erkin fikr rag'batlari, jamoaviy harakatlarda faollik

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki asosiy bo'g'ini bo'lishi bilan bir qatorda, bolani keyingi ta'lim tizimiga tayyorlash vazifalari bilan muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarga Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorlarida maktabgacha ta'lim tizimini moddiy- texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish va yanada takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Bugungi kunga kelib bu ta'lim sohasi davlat siyosati darajasigacha ko'tarilishi bejiz emas. Maktabgacha ta'lim sohasiga qaratilayotgan



e'tibor avvalgi tizimdan bir muncha farq qilmay qolmaydi. Davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan bir qator qonun, farmon va farmoyishlar Maktabgacha Ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga yo'naltirilganligi ham katta o'zgarishlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312 sonli "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", Maktabgacha Ta'lim Vazirligining 2018 yil 18-iyundagi "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat Talablari hamda "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturini amalda joriy etilishi kabi ishlar bu ta'lim tizimini va bu sohaga doir masala, muammolarni o'z yechimini topishida muhim rol o'ynaydi. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish maqsadi, jamiyatiz oldida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.10.2020-yil 07/20/4581/0098 sonli "Maktabgacha Ta'lim sohasiga Davlat xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorida maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash orqali: " Maktabgacha Ta'lim Tashkilotlari tarmoqlarini yanada kengaytirish hamda bolalarning maktabgacha ta'limi bilan kengroq qamrab olinishini ta'minlash" ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Ushbu ustuvor vazifalar natijasida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlari kun sayin kengayishi va bu tashkilotlarda bolalarning psixologik, jismoniy, ekologik va aqlan rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Sahnalashtirish faoliyati bolalarda ifodali nutq, intellektual va badiiy estetik tarbiyaning rivojlanishiga bog'liq bo'lgan ko'pgina pedagogik masalalarni hal etish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda u bolada sezgi, his-tuyg'ularning namoyon bo'lishi bilan farqlanadi. Sahnalashtirish faoliyati bolaning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishda zarur hisoblangan muhim sharoit empatiyaning rivojlanishida asosiy vositadir. Empatiyaning asosi insonning emotsional holatini uning yuz ifodasi, mazmunli harakatlari va nutqiy qobilyati yordamida bila olishi, o'zini har qanday vaziyatda ham boshqalarning o'rniga qo'ya olishi hisoblanadi. Ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan ishlarning tarkibi va usullarining dasturiy talabida maxsus, "Bolaning Sahnalashtirish faoliyatida rivojlanishi" nomli bo'limida aynan quyidagilar qayd etilgan, pedagog:

-sahnalashtirish faoliyatida bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish (ijrochilik mahoratini rag'batlantirish, erkin harakatlarini



rivojlantirish, mimika vositalarini, harakatlar ifodaliligi va intonatsiyalar yordamida improvizatsiyani gavdalantirish)

-bolalarni teatr madaniyati bilan tanishtirish (teatr moslamalari, teatrning janrlari hamda qo‘g‘irchoq teatrining barcha turlari bilan tanishtirish)

-teatr faoliyatining boshqa faoliyat turlari bilan yagona pedagogik jarayonda o‘zaro aloqadorligini izohlab bera olishi lozimligi

Sahnalashtirish faoliyati ijodkorlik darajasi bu-bolalarning ijodiy jamoasi, har bir bolaning imkoniyatlarini namoyon etish darajasi, emotsional va individual jihatlarini aks ettira olish kabilarni nazarda tutadi. Sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda bir muncha kreativ metodikalardan foydalanish, jamoada ijodiy atmosferani paydo bo‘lishiga imkon yaratadi. Bolaning ijodiy yondashuvchanligi ortadi, ijodiy vazifalar rang-barang tus oladi va pedagogik amaliyotda foydalanishga mo‘ljallanadi. Bolalarning bilimga qiziqishi va emotsional rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlar ko‘lami, individual jihatlarini, psixik funksiyalari, bolaning ijobiy motivatsiyasi teatr san'atini o‘zlashtirish orqali harakatlar shakllanishida belgilangan vazifalar o‘z yechimini topadi. Maktabgacha Ta’lim tashkilotlarida bolalarni aktyorlik qobiliyatlarini rivojlanishiga qaratilgan dasturlar tuziladi, aynan shu dasturlar asosida maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining aktyorlik mahorati o‘sib boradi. Teatrlashtirilgan faoliyat yordamida bolalarning artistik mahoratlari shakllanib boradi va bu dasturning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Sahnalashtirish faoliyati tashkil etishdagi metod va vazifalar esa:

-maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari sahna asarlari bilan avvalo tanishib chiqishi

-obrazilarni namoyon etish uchun bola yoshini inobatga olinishi

-ijodkorlik, artistlik ko‘nikmalarini shakllanishi

-bola nutqi, intonatsiyasi ustida ishlash

-erkin fikr rag‘bati, jamoaviy harakatlarda faollik

-emotsional holatlarini his eta olish va ushbu hissiyotlarni uyg‘otish kabi vazifalar maqsad qilib qo‘yilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.10.2020-yil 07/20/4581/0098 sonli "Maktabgacha Ta’lim sohasiga Davlat xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida"gi Qaror.



2. Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyat o'rgatish. Darslik. "Metodist nashriyoti", 2023.
3. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'irchoq teatri tarixi. –T.: Talqin. 2006.
4. Khasanova, S., & Zufarova, L. (2023, June). DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE SKILLS IN PRE-SCHOOL CHILDREN THROUGH THEATER GAMES. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 1-5).
5. Khasanova, S. T., & Vasila, T. (2023, May). DEVELOPMENT OF IMAGINARY-CREATIVE COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSION. In Next Scientists Conferences (pp. 84-91).
6. Sultansaidova, M. (2023). SOME ASPECTS OF PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL. International Journal of Pedagogics, 3(02), 51-55.
7. Djamilova, N., Kim, I., Marasulova, D., Imamova, N., & Ismanova, G. (2022). Ecological Culture Development of Independent Learning, Creativity, Integrative Technology and Logical Thinking. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2524-2529.
8. Djamilova, N. (2022). FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF LIFE STRATEGIES IN STUDENTS. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(04), 187-191.
9. Djamilova, N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. (2023). DIRECTING PRESCHOOL CHILDREN TO PROFESSION AT THE EARLY AGE. Science and innovation, 2(B9), 500-507.9.
10. Imamova, N. Z., & Abdulhakimova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BAYRAM ERTALIQLARI ORQALI BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH MAZMUNI. Science and innovation, 2(Special Issue 4), 66-68.
11. Abdullayevna, G. G. (2023). Importance Of Pictures Based On Fairy Tales In Spiritual And Moral Education Of Preschool Children. Academia Science Repository, 4(6), 289-292.
12. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. Science and Innovation, 1(7), 676-679.

13. Imamova, N. Z. (2023, January). Methodology for developing creative qualities of future teachers in the process of independent training. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 86-90).

14. Muratova, M. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA OTA-ONALARNI TA'LIM TARBIYAVIY JARAYONDA FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. Science and innovation, 1(B7), 1091-1096.

15. Махмутазилова, Ю. Р. (2019). Роль воспитателя в детском саду в формировании личности ребенка. Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), 24-28.

